

GIPO- VA AVITAMINOZLARNING ASOSIY SABABLARI.

Siyob Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi

MELIYEVA SEVARA XOSHIMOVNA

Annotatsiya : Ushbu maqola gipo- va avitaminoz kasalligi kelib chiqish sabablari , klinikasi davolash, bu kasallikda zamonaviy davolash usullarini qo'llash , zamonaviy texnikalardan foydalanishga mo'ljallangan.

Abstract: This article is intended to describe the causes of hypo- and avitaminosis, clinical treatment, application of modern treatment methods in this disease, and the use of modern techniques.

Аннотация: Данная статья призвана описать причины заболевания гипо- и авитаминоз, его клиническое лечение, применение современных методов лечения при этом заболевании, а также применение современных методик.

Ko'pincha bir necha vitaminlarning yetishmasligi kuzatiladi, lekin bunda biror bir vitamin yetishmasligi kasallik belgilarida asosiy o'rinni egallaydi. Gipo- va avitaminozlarning asosiy sabablari quyidagilar: Vitaminlarni ovqat bilan tushishidan iborat ekzogen yoki birlamchi sabab. Bu sabab ko'p uchraydi. Vitamin o'zlashtirilishi buzilganda yoki ularga bo'lgan talab keskin ortganda yuzaga chikadigan endogen yoki ikkilamchi sabablar (homiladorlik stress, keskin jismoniy zo'riqish, ishlab chikarishning zararli omillari, yuqumli kasalliklar, ichki va endoqrin a'zolarining kasalliklari, intoqsikatsiya va boshqalar). Vitaminlar almashinuvi va vazifalarini irsiy buzilishdan iborat tug'ma sabablar. Gipo- va avitaminozlarning sabablarini to'liqroq holda ko'rib chikamiz. Tayyor ovqatda ba'zi vitaminlarning kamayishiga asosiy sabablar: A) maxsulotlarni, ayniqsa meva va sabzavotlarning noto'g'ri saklash natijasida vitaminlar parchalanadi (asosan vitamin S). B) xar doim bir xilda ovqatlanish, xususan ko'p vitamin (S, RR va boshqalar) tutuvchi meva sabzavotlarning kam iste'mol qilish; V) maxsulotlarni ovqat tayyog_ lash jixatidan qayta ishlanishi qoidalarining buzilishi, kaysiki bu qonikarsiz saklanish bilan uygunlikda tayyor

ovqatdagi vitaminlar sonining keskin kamayishiga olib keladi; G) tayyor ovqatlarni noto'g'ri saklash va o'z vaqtida iste'mol qilmaslik; D) texnologik qayta ishlangan, qonservalangan, natijada vitaminlarning ko'p qismini yo'qotgan maxsulotlarni iste'mol qilishning ortishi; Ye) aholining ko'pchiligida energiya sarfini keskin kamayishi mexnatini mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish, transport va kommunal xizmatning

Gipovitaminozlarning oldini olishni asosiy tadbirlardan biri aholi orasida ratsional ovqatlanish haqida tushuntirish ishlari olib borishdir. Ammo bu ish tibbiy xodimlar tomonidan hali ham yetarlicha amalga oshirilmayapti, buning ustiga ovqatlanish gigienasidan xabardor qishilar ham maxsulotlardagi vitaminlarning miqdori va qayta ishlanganda yo'qotiladigan miqdori haqida ko'rsatmalar yo'qligi tufayli o'zining ovqatlanishini ratsional yo'lga qo'ya olmayapti. Haligacha mamlakatimizda oziq maxsulotlaridagi vitaminlarga Davlat Standarti belgilanmagan, qadoqlangan tayyog_ maxsulotlarda vitaminlar miqdori ko'rsatilmagan, bu ish qator chet davlatlarda juda yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lib, sog'likni saklash ishida katta o'rin tutadi. Yuqoridagi va boshqa ba'zi sabablar aholi orasida, jumladan bolalar orasida ham gipovitaminozlar sonining keskin ortishiga olib keladi. Bir qancha mintakalarda (Markaziy Rossiya, Garbiy va Sharkiy Sibir, Ukraina, Kozogiston, Kavkaz, O'rta Osiyo) mamlakatlari aholisi tekshirilganda vitaminlarga muxtojlik keng tarkalganligi, qish baxor davrida esa kuchayishi kuzatiladi. Qish-baxor davrida aholi guruxlari orasida askorbin kislota yetishmasligi tavsiya kilingan me'yog_dan 25-75%, V gurux vitaminlari esa 20-60 % ga ortgan. Aholining ba'zi katamlari orasida tekshirilganlarning 80-90 % yetishmovchilikning me'yog_dan ortishi 50-60 % ni tashqil qilgan.

Yosh bolalarda gipertenziya, yomon uyku, mushak tarangligi, yig'loqlik kuzatiladi. Organizm qarshiligining pasayishi oqibatida yuqumli kasalliklar piodermiya kelib chikadi. Gipovitaminoz S ning dastlabki belgilari birmuncha noanik qo'zg'aluvchanlik, tez charchash, bosh aylanishi, taxikardiya, uykuhanlik. Keyinroq

shu gipovitaminozga xos belgilar rivojlanadi: qo'loq, burun, lab, qo'l, tirnoqlar ko'karishi, milkka salgina tyog'ib ketganda, ularning shishib ketishi va qonashi, og'zidan yoqimsiz xid kelishi, tishlar qimirlab qolishi. Yosh bolalarda anoreksiya rivojlanadi, yuqumli kasalliklarga qarshiligi susayadi, tana vazni yetishmaydi. Terisi quruk, och qulrang va donador bo'lib qoladi.

Bolalarda uzoq vaqt vitamin A yetishmasligi tufayli bo'y o'sish va aktiv rivojlanish orqada koladi: anemiya, oshqozon ichak yo'li va nafas yo'llari yuqumli kasalliklari (bronxit, pnevmoniya) ga moyillik, kseroftalmiya, piuriya, gematuriya rivojlanadi. Mazkur vitamin A yetishmasligida tananing barcha qoplamlarida patologik o'zgarishlar kuzatiladi. Teri qurishi va po'st tashlash, sochlar qurishi va soch xaltalarida darvoza hosil bo'ladi va chipqonlar paydo bo'ladi. Yuqori nafas yo'llarining shilliq pardasi zararlanib, bronxit, kuchli tumov hosil bo'lishiga olib keladi. Gipovitaminozning turli belgilari nomaxsus bo'lib, nerv sistemasi tomonidan ko'proq namoyon bo'ladi: yuqori qo'zg'aluvchanlik, dimog'dorlik, yomon qo'rqinchli uyku, ko'p terlash shuning natijasida ensa soxasida soch to'qilishi kuzatiladi. Bolada suyak to'qimasi tomonidan katta liqildoq chetlari, ensa suyagi choqlari soxasi, ko'krak soxasi paypaslaganda yumshoqligi seziladi. Bularning umumiy ko_rinishiga nazar salsak bosh suyaklari yumshab, shakli o'zgaradi, to'shda, kovurg'alar, tog'aylar bilan birikkan joylarda qalinlashmalar paydo bo'ladi, son suyaklari kiyshaygan, tish chiqish sekinlashadi, o'sishdan orqada koladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. https://namdu.uz/media/Books/pdf/2024/11/09/NamDU-ARM-14154-Bolalar_kasalliklari_propedevtikasi.pdf
2. <https://tashpmi.uz/uz/talim/bakalavriyat/ii-pediatrics-and-medical-biology-f>